

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi

Marhabo Ibragimova

Ilmiy rahbar: A.Kamolova

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Quyudagi maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarida ta'lim tizimida amalga oshiriladigan islohotlarva ta'lim turlari, shakllarini tahlil qilingan. Bundan tashqari ta'lim tizimini isloh qilishda asosiy e'tiborni pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidagi turli yangilanishlar va uzluksiz ta'lim tamoyillariga qaratilgani ham takomillashtirib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, uzluksiz ta'lim, jamiyat, davlat, qonun, kadrlar tayyorlash, psixologik-pedagogik mahorat, qoblyat, kompetensiyasi, pedagogik mahurat, barkamol

Education system of the Republic of Uzbekistan in the years of independence

Marhabo Ibragimova

Scientific supervisor: A.Kamolova

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: The article below analyzes the reforms implemented in the education system of Uzbekistan during the years of independence and the types and forms of education. In addition, the main attention in the reform of the education system is paid to various innovations in the system of training pedagogical personnel and the improvement of the principles of continuous education.

Keywords: constitution, continuous education, society, state, law, personnel training, psychological and pedagogical skills, ability, competence, pedagogical skills, perfect

Mustaqillik e'lon qilingan (1991-yil 1-sentabr) dastlabki yillardagi O'zbekiston hukumati ta'limga ustuvor soha sifatida e'tibor berib kelmoqda. Respublikamizning ta'lim sohasida olib borilayotgan aniq va ravshan davlat siyosati ham mavjud bo'lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishini Konstitutsiya bilan kafolatlaydi. Hududimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan yangilash va rivojlantirishlarni o'rganishimiz zarur. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda maqsad boricha

fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir. Shu maqsadda 1999 - yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Bu ikki hujjatga binoan ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari bosqichma-bosqich tizimli amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Birinchi bosqich - 1997- 2001 yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda yangi tizimi doirasida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, ta'lim standartlarini yaratish o'quv dasturlari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini qayta qurishni, o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari tizimiga zamin tayyorlashi va uzluksiz ta'lim tizimiga ham asos solishdir.

Ikkinchi bosqich - 2001-2005 yillar. Bu davrda milliy dastur to'liq amalga oshiriladi. Uning ba'zi g'oyalari va qoidalariga o'zgartirishlar kiritilish ham ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich - 2005- yil va undan keyingi yillar bo'lib, islohot tajribalari tahlil etilib umumlashtirildi hamda kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi [1]. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan meros bo'lib qolgan mafkuraviy qarashlar va eskirgan yondashuvlardan to'liq xalos etish, shuningdek, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini shakllantirishdan iboratdir. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan hamda ishlab chiqarish. Ushbu tarkibiy qismlar yagona tizim sifatida amal qilib, kadrlar tayyorlash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va bir vaqtning o'zida uning asosiy obyekti hisoblanadi. U ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi bo'lishi bilan birga, mazkur xizmatlarni amalga oshiruvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning intellektual, kasbiy va ma'naviy jihatdan kamol topishi kadrlar tayyorlash tizimining asosiy natijasi sanaladi. Davlat va jamiyat ta'lim hamda kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, ular kadrlarni tayyorlash jarayonining kafillari bo'lib, mehnat bozorida ushbu kadrlarni qabul qilish va ulardan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning poydevori hisoblanadi. U ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, o'quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi hamda uning faoliyat ko'rsatish muhitini qamrab oladi. Uzluksiz ta'lim O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi

ustuvor soha bo'lib, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Mazkur tizim ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatga ega shaxsni shakllantirish, shuningdek, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni jadal tayyorlash uchun zarur tashkiliy, ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- kasb - hunar ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim;[3]

Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish masalalari O'zbekiston Respublikasida ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur jarayonda pedagog kadrlarning kasbiy, ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi o'rni hamda ularning mehnatini munosib baholash masalasiga alohida e'tibor qaratib, quyidagicha ta'kidlagan edi: "O'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag'batlantirish, ularning o'z ishi, kasbidan mamnun bo'lishini ta'minlashimiz lozim. Bu masalani hal etmasdan turib, kelajak avlod tarbiyasi to'g'risida gapirishning o'zi mutlaqo nomaqbuldir" [4].

Mazkur fikr pedagog shaxsining ta'lim tizimidagi hal qiluvchi rolini ochib beradi. Chunki uzluksiz ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, avvalo, o'qituvchi va murabbiylarning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati, ma'naviy-axloqiy qiyofasi hamda mehnat faoliyatidan qoniqish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogning kasbidan mamnunligi uning o'quv-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabati, ijodiy faolligi va ta'lim natijalarining sifati oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida pedagog kadrlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim vazifa sifatida belgilanadi. Ta'lim muassasalarida qulay pedagogik muhitni shakllantirish, o'qituvchining jamiyatdagi nufuzi va ijtimoiy maqomini yuksaltirish uzluksiz ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Natijada, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini to'liq namoyon etishga imkon beruvchi tizimli chora-tadbirlar uzluksiz ta'lim tizimining sifat jihatdan yangi

bosqichga ko'tarilishiga, barkamol, raqobatbardosh va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda bir qator mavjud muammolarga qaramasdan ta'lim tizimida yangilanishlar bo'ldi. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng ta'lim sohasini ustuvor yo'nalish sifatida tanlab, uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Bu islohotlar uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'limning barcha turlarini zamonaviy talablar asosida yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika tarixi: Darslik. K.Hoshimov, S.Nishonova. - T.:Alisher Navoyi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. - 250 b.
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano - standart" nashriyoti, 2017. - 4 b
3. " Ta'lim to'g'risidagi" qonun. 29.08.1997.
4. I.A.Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash - mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferentsiyadagi ochilish marosimidagi nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 18.02.2012.
5. Avazjon o'g'li, A. R., & qizi KHOLIKOV, K. A. O. (2026). O'ZBEKISTONDA MILLIY MAKTAB MUOMMOSI BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. TADQIQOTLAR, 77(2), 136-140.
6. Rafikova, R. A., & Kamolova, A. O. K. (2025). Fanlararo aloqalar va ularning STEAM ta'limidagi ahamiyati. Fan va ta'lim , 6 (12), 798-804.
7. Kamolova, A. O. Q., Rafikova, R. A., & Nexochina, L. S. (2025). Mariya Montessori metodikasining pedagogik-psixologik asoslari va uning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati. Science and Education, 6(12), 517-520.